



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedراسi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali
23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




MUNDARIJA

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmi rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





КИЧИК БИЗНЕСНИ МУҚОБИЛ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ИЛГОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАРИ



Умарова Гулзодахон Қодирбековна

катта ўқитувчи
Андижон факультети
Тошкент давлат иқтисодиёт
университети

E-mail: rustamjonumarov252@gmail.com
ORCID:0009-0000-8859-4840

Аннотация. Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarini muqobil moliyalashtirish mexanizmlari va ularning xorijiy ilg'or tajribalari o'rganilgan. Tadqiqot AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning muqobil moliyalashtirish ekotizimlari – jumladan, kraudfanding, tengdoshlar orasidagi P2P kreditlash, venchur kapital, farishta investitsiya, zanjir moliyasi va aylanma kredit fondlarini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu maqolada xorijiy modellarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirishning ilmiy asoslangan takliflari bayon etilgan.

Калит so'zlar: kichik biznes, muqobil moliyalashtirish, kraudfanding, P2P kreditlash, venchur kapital, moliyaviy inklyuzivlik, xorijiy tajriba.

ПРОДВИНУТЫЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ АЛЬТЕРНАТИВНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА

Умарова Гульзодахан Кадырбековна

старший преподаватель
андижанского факультета
Ташкентского государственного
экономического университета

E-mail: rustamjonumarov252@gmail.com
ORCID:0009-0000-8859-4840

Аннотация. В данной статье рассматриваются альтернативные механизмы финансирования малого бизнеса и передовой зарубежный опыт их применения. Цель исследования – провести сравнительный анализ экосистем альтернативного финансирования в США, Германии, Южной Кореи, Сингапуре и других развитых и развивающихся странах, включая краудфандинг, одноранговое кредитование, венчурный капитал, ангельские инвестиции, цепочное финансирование и возобновляемые кредитные фонды. В статье представлены научно обоснованные предложения по адаптации зарубежных моделей к условиям Узбекистана.

Ключевые слова: малый бизнес, альтернативное финансирование, краудфандинг, P2P-кредитование, венчурный капитал, финансовая доступность, зарубежный опыт.

ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES IN ALTERNATIVE FINANCING OF SMALL BUSINESSES

Umarova Gulzodakhan Kadyrbekovna

Senior Lecturer
Andijan Faculty
Tashkent State
University of Economics

E-mail: rustamjonumarov252@gmail.com





ORCID:0009-0000-8859-4840

Abstract. This article examines alternative financing mechanisms for small businesses (SB) and the advanced foreign experiences in their application. The study provides a comparative analysis of alternative financing ecosystems in the USA, Germany, South Korea, Singapore and other developed and developing countries, including crowdfunding, peer-to-peer (P2P) lending, venture capital, angel investment, supply chain finance and revolving credit funds. The article presents scientifically grounded recommendations for adapting foreign models to Uzbekistan's conditions.

Keywords: small business, alternative financing, crowdfunding, P2P lending, venture capital, financial inclusion, foreign experience, Uzbekistan.

Kirish

Kichik biznes subyektlari jahon iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, kichik va o'rta biznes dunyo bo'yicha rasmiy ish o'rinlarining 70 foizini ta'minlaydi va YaIMning 50 foizga yaqinini yaratadi [11]. Biroq an'anaviy bank kreditlash tizimi kichik biznes subyektlari uchun ko'pincha yetarli darajada mos emasligi aniqlangan – yuqori garov talablari, uzoq protseduralar va past kredit tarixi buning asosiy sabablaridir.

Global muqobil moliyalashtirish bozori so'nggi o'n yil ichida misli ko'rilmagan darajada o'sdi. Cakichik biznesridge Centre for Alternative Finance (CCAF) tadqiqotiga ko'ra, 2015 yildagi 50 mlrd dollarlik hajmdan 2023 yilga kelib bozor 482 mlrd dollarga yetdi, ya'ni 9 barobar oshdi. Bunday tez o'sishning asosiy omillari sifatida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, moliyaviy inklyuzivlik talabining kuchayishi va COVID-19 pandemiyasidan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayoni ko'rsatilmoqda.

O'zbekistonda 2024 yil holatiga ko'ra, respublikada kichik tadbirkorlik subyektlari soni 500 ming dan oshgan bo'lsa-da, ularning faqat 23 foizi bank kreditlariga murojaat qilgan, 14 foizi esa kredit olishga muvaffaq bo'lgan [12]. Muqobil moliyalashtirish mexanizmlari bo'yicha qonunchilik bazasi endigina shakllana boshlagan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.11.2018 yildagi “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PF-5583-son Farmoni qabul qilinishi muhim qadam sifatida baholanmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – kichik biznesni muqobil moliyalashtirishning xorijiy ilg'or tajribalarini tizimli tahlil etish va ulardan O'zbekiston uchun amaliy xulosalar chiqarishdir. Tadqiqot natijalari moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, kichik biznes subyektlarining kapitalga kirishini kengaytirish va raqobatbardosh iqtisodiyot qurish uchun siyosiy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Muqobil moliyalashtirish sohasidagi ilmiy adabiyotlar so'nggi o'n yil ichida sezilarli darajada kengaydi. E. Mollick kraudfanding sohasidagi tadqiqotida ushbu mexanizmning nafaqat moliyaviy, balki bozorni tekshirish va ijtimoiy kapital shakllantirish funksiyalarini ham bajarishi mumkinligini asoslab berdi [8]. Shu yo'nalishda P. Belleflamme, T. Lambert, va A. Schwienbacherlar mukofotga asoslangan va ulushga asoslangan kraudfandingni taqqoslab, har birining afzalliklari va cheklovlarini belgilab berdi [2].

P2P kreditlash sohasida Berger va Gleisner ning ishonch mexanizmlari va ijtimoiy ma'lumotlar haqidagi tadqiqoti fundamental ahamiyat kasb etadi. Ular investorlar tomonidan to'liq foydalaniladigan ijtimoiy ma'lumotlar kredit qarorlarida muhim rol o'ynashini empirik isbotlagan [3]. Keyinchalik, R. Emekter, B. Jirasakuldech, va M. Lu “LendingClub” tashkiloti ma'lumotlari asosida P2P kreditlashda kredit xavfini baholash modelini ishlab chiqdi [5].

Rivojlanayotgan bozorlar kontekstida Beck va Demirguc-Kunt ning ishida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishdagi tarkibiy to'siqlar – axborot asimmetriyasi, yuridik tizim zaifligi va





moliya bozori chuqurligi – tahlil qilingan. Ularning xulosasi shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy inkluzivlikni oshirish uchun faqat kredit liniyalarini kengaytirish yetarli emas balkim, institutsional islohotlar ham bir vaqtda amalga oshirilishi shart [1].

Xalqaro darajadagi siyosiy tavsiyalar orasida OECD tashkilotining “Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish vositalari” hisoboti alohida e‘tiborga sazovor. Unda P2P kreditlash, kraudfanding va zanjir moliyasi bo‘yicha 25 ta OECD tashkilotiga a‘zo davlatlarning siyosati taqqoslangan bo‘lib, samarali regulyativ muhitning asosiy elementlari aniqlab berilgan [9].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

5 ta tanlangan davlat bo‘yicha ko‘rsatkichlar qiyosiy mamlakatlar tahlili asosida taqqoslandi; O‘zbekistondagi muqobil moliyalashtirish muhitini baholash uchun SWOT tahlili o‘tkazildi; moliyalashtirish mexanizmlarini tarkibiy belgilariga ko‘ra guruhlab klaster tahlili o‘tkazildi; 2018–2023 yillar bo‘yicha o‘shish sur‘atlari dinamik tendentsiya tahlili asosida hisoblandi.

Qiyosiy tahlil uchun mamlakatlar tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi: moliyaviy rivojlanganlik darajasining xilma-xilligi, institutsional muhit farqlari, O‘zbekiston bilan iqtisodiy aloqalar, muqobil moliyalashtirish bo‘yicha model yoki tajriba mavjudligi. Bu mezonlarga asosan AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va Bangladesh tanlandi.

Tadqiqot natijalari

Jahon muqobil moliyalashtirish bozori 2023 yilda 482 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. CCAF prognoziga ko‘ra, 2028 yilga qadar ushbu ko‘rsatkich 934 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa yillik o‘rtacha 14.2 foizlik o‘shish sur‘atiga to‘g‘ri keladi. Geografik jihatdan bozor notekis taqsimlangan: Shimoliy Amerika 38 foiz, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi 34 foiz, Yevropa esa 19 foiz ulushni egallaydi [4]. Kichik biznes subyektlari muqobil moliyalashtirishning asosiy foydalanuvchilari umumiy hajmning 67 foizini tashkil etadi. Ayniqsa, texnologiya, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi startaplar ushbu mexanizmlardan faol foydalanayotganligi qayd etilmoqda.

1-jadval.

Global muqobil moliyalashtirish mexanizmlari turlari va asosiy ko‘rsatkichlari (2023 y.)⁸

Moliyalashtirish turi	Asosiy xususiyatlari	Asosiy bozorlar	O‘rtacha hajmi (AQSh dollari, ming)	O‘shish sur‘ati (foiz hisobida)
Kraudfanding	Jamoaviy investitsiya, past to‘siq	AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya	5–500	18.3
P2P kreditlash	Bank vositachisiz, past foiz	Xitoy, AQSh, Hindiston	1–100	21.7
Venchur kapital	Yuqori tavakkalchilik yoki daromad	AQSh, Isroil, Singapur	500–10 000	9.4
Farishta investorlar	Erta bosqich, tajribalilik	AQSh, Buyuk Britaniya, GFR	25–500	14.6
Ta‘minot zanjiri moliyasi	Zanjir bo‘ylab optimallashtirish	Niderlandiya, Janubiy Koreya	10–1 000	16.2
Aylanma kredit fondlari	Qayta tiklanuvchi, ijtimoiy yo‘nalgan	Skandinaviya, Kanada	5–250	11.9

Global muqobil moliyalashtirish bozorida yetakchi o‘rinlarni egallagan beshta mamlakat – Xitoy, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Singapur va Avstraliya tajribasi qiyosiy

⁸ CCAF Global Alternative Finance Report, 2023; Statista, 2024





tarzda tahlil qilinib, ularning rivojlanish omillari hamda O‘zbekiston sharoitiga mos jihatlari o‘rganildi. Ushbu mamlakatlar muqobil moliyalashtirish infratuzilmasining rivojlanganligi, raqamli texnologiyalardan keng foydalanilishi, investorlarga yaratilgan qulay institutsional muhit hamda innovatsion moliyaviy vositalarning keng joriy etilganligi bilan ajralib turadi.

2-jadval

Kichik biznes moliyalashtirishidagi xalqaro qiyosiy tahlil (2023 y.)⁹

Ko‘rsatkich	AQSh	Germaniya	Janubiy Koreya	Singapur	O‘zbekiston
Kichik biznes sektori YaIM ulushi (%)	44,0	52,0	50,0	46,0	31,2
Muqobil moliyalash. hajmi (mlrd dollarda)	73,5	12,4	8,9	3,2	0,08
Kraudfanding platformalar soni	1,200	380	210	90	3
P2P kreditlash ulushi (kichik biznes kreditida, %)	12,3	8,7	11,4	15,6	<1
Tartibga solish mumkinligi	Ha	Ha	Ha	Ha	Qisman
Kichik biznes moliyaviy inklyuzivlik indeksi	82	79	76	88	41

Qo‘shma Shtatlar muqobil moliyalashtirish sohasida global yetakchi bo‘lib, 2023 yilda 183 mlrd dollar hajmdagi bozorga ega. 2012 yilda qabul qilingan JOBS Act tashkiloti muqobil moliyalashtirishning huquqiy asosini shakllantirdi va bu qonun ortidan aksiyaviy kraudfanding legallashtirildi. “Kickstarter” va “Indiegogo” platformalari orqali hozirgi kunga qadar 7,5 mlrd dollardan ortiq mablag‘lar jalb qilingan bo‘lib, 250 ming dan ziyod loyiha moliyalashtirilgan [11].

Singapur hukumatining biznesni rivojlantirish, eksportni kengaytirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga ixtisoslashgan “Singapur Enterprise Singapore” agentligi kichik biznesni moliyalashtirishda raqamli innovatsiyalarni qo‘llashning namunaviy modeli sifatida baholanmoqda. 2023 yilda jami 10 ming dan ortiq kichik biznes subyekti Singapur grant va sarmoya dasturlari orqali global bozorga chiqdi. Ushbu yutuqning asosi – 2016 yilda “MAS” (Singapur moliya tizimini boshqaruvchi davlat organi) kompaniyasi tomonidan joriy etilgan “Regulatory Sandbox” (Regulatory sandbox mexanizmi innovatsion moliyaviy mahsulotlarni real bozor sharoitida sinovdan o‘tkazish imkonini beruvchi samarali tartibga solish vositasi hisoblanadi) mexanizmi bo‘lib, u fintech kompaniyalariga haqiqiy bozor muhitida innovatsion mahsulotlarni test qilish imkonini berdi.

Singapurning yana bir yutug‘i shundaki, u yerda sun‘iy intellekt (AI) asosida kredit skoringi tizimi qo‘llaniladi. An‘anaviy moliyaviy ma‘lumotlarsiz ham alternativ ma‘lumotlar asosida kredit bahosi aniqlanadi. Bu tizim kichik biznes subyektlarida moliyaviy tarixning yo‘qligi muammosini hal qilishga yordam berdi.

O‘zbekistonda 2024 yil boshiga ko‘ra kichik biznes sektori ishchi kuchining 74 foizini band qildi va YaIMning 31,2 foizini yaratdi¹⁰. Biroq moliyaviy inklyuzivlik darajasi pastligicha qolmoqda. Global Findex (Jahon banki tomonidan aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini baholovchi muhim xalqaro ko‘rsatkich hisoblanadi) ma‘lumotlariga ko‘ra, kattalar aholisining 43 foizigina rasmiy moliya xizmatlaridan foydalanadi (jahon o‘rtacha ko‘rsatkichi –

⁹ World Bank SME Finance Database; OECD (2023)

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agnetligi ma‘lumotlari. Stat.uz





76 foiz).

3-jadval.

**Muvaffaqiyatli muqobil moliyalashtirish modellari va ularning
O‘zbekiston uchun ahamiyati¹¹**

Platforma/ Model	Davlat	Asosiy mexanizm	Natijalari	O‘zbekiston uchun ahamiyati
Kickstarter	AQSh	Mukofotli kraudfanding	7.5 mlrd. dollar jalb qilindi, 250 ming dan ortiq loyiha	Ijodiy sohalar, qishloq xo‘jaligi
KfW Bankengruppe	Germaniya	Davlat kafolatlari va bozor	2023 yilda 135 mlrd. EUR, 1.4 milion kichik biznes qamrovi	Davlat-xususiy hamkorlik modeli
Funding Circle	Buyuk Britaniya	P2P biznes kreditlash	18 mlrd. dollardan ortiq kreditlar, 130 ming dan ortiq biznes	Raqamli platforma yaratish
KOSME	Janubiy Koreya	Davlat kichik biznes fondlari ekotizimi	YaIMning 1.2% kichik biznesga to‘g‘ri kelishi, 40 mingdan ortiq kompaniya qamrovi	Markazlashgan ekotizim modeli
Enterprise Singapore	Singapur	Grantlar, mentorlik va kapital	10 mingdan otiq kichik biznes global bozorga chiqdi	Eksport yo‘nalishli kichik biznesni qo‘llab- quvvatlash
Grameen Bank	Bangladesh	Guruh mikrokredit	9.4 milion mijoz, 97% qaytish darajasi	Qishloq va xotin- qizlar, kichik biznes

2025-yil 17-aprelda qabul qilingan “Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1058-son Qonun tadbirkorlikni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qonun orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi yanada kengaytirilib, kredit, kafolat va subsidiyalash mexanizmlarining samaradorligini oshirish, shuningdek, kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini yaxshilash nazarda tutilgan.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda kichik biznesni muqobil moliyalashtirishning xorijiy ilg‘or tajribalari, ularning O‘zbekistonga tatbiq etilishi imkoniyatlari har tomonlama tahlil qilindi va Natijada quyidagicha xulosalar olindi:

– Global muqobil moliyalashtirish bozori 2023 yilda 482 mlrd. dollarga yetib, yillik 14,2% sur‘atda o‘smoqda. Kichik biznes ushbu bozorning 67 foizini tashkil etadi.

– Rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Germaniya, Koreya, Singapur) muqobil moliyalashtirish mexanizmlari kichik biznes subyektlarining bank kreditiga alternativa sifatida barqaror o‘rin egallagan.

– O‘zbekistonda kichik biznes sektori iqtisodiyotda muhim o‘rin egallasa-da (YaIM 31,2%), muqobil moliyalashtirish bozori hajmi 80 mln dollardan oshmaydi, bu esa rivojlangan mamlakatlardan bir qancha barobarga kam.

– Regulyativ bazaning yetersizligi, moliyaviy savodxonlikning pastligi, raqamli infratuzilmaning rivojlanmaganligi va kredit ma‘lumotlari bazasining torligi asosiy to‘siqlar

¹¹ Muallif tomonidan KfW (2023), KOSME (2023), Enterprise Singapore (2023) ma'lumotlari asosida tuzilgan





hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekiston uchun quyidagi siyosiy tavsiyalar ishlab chiqildi:
4-jadval.

**O‘zbekistonda muqobil moliyalashtirishni rivojlantirish
 bo‘yicha tavsiyalar**

Yo‘nalish	Tavsiya etilgan chora	Xorijiy namuna	Amalga oshirish muddati	Kutilgan samara
Regulyativ asos	Kraudfanding qonunini qabul qilish	JOBS Act (AQSh, 2012)	2026–2027	Platforma soni 3barobar oshadi
Raqamli infratuzilma	Kichik biznes moliyaviy platforma ekotizimi	KOSME (Koreya)	2026–2027	Murojaat vaqti 40% ga kamayadi
Kafolat fondi	Milliy kichik biznes kafolat fondini kengaytirish	KfW (Germaniya)	2026–2027	Kredit imkoniyati 2 barobar oshadi
Moliyaviy savodxonlik	Kichik biznes uchun moliyaviy trening dasturlari	Enterprise Singapore	2026–2028	Kredit qaytarish 15% gacha yaxshilanadi
Sandbox rejim	Fintech uchun regulyativ sandbox	MAS (Singapur)	2026–2027	20 dan ortiq yangi fintech kompaniya

Yuqoridagi chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish 2028 yilga qadar O‘zbekistonda muqobil moliyalashtirish bozori hajmini 80 mln dollardan 1–1,5 mlrd dollarga yetkazish imkonini beradi, deb taxmin qilinmoqda. Bu esa kichik biznes subyektlarining moliyalashtirishga ega bo‘lish darajasini 14 foizdan 35–40 foizga oshirish va 200 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Beck, T., & Demirguc-Kunt, A. (2006). Small and medium-size enterprises: Access to finance as a growth constraint. *Journal of Banking & Finance*, 30(11), 2931–2943. <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2006.05.009>
2. Belleflamme, P., Lakichik biznesert, T., & Schwienbacher, A. (2014). Crowdfunding: Tapping the right crowd. *Journal of Business Venturing*, 29(5), 585–609. <https://doi.org/10.1016/j.jbusvent.2013.07.003>
3. Berger, A. N., & Gleisner, F. (2009). Emergence of financial intermediaries in electronic markets: The case of online P2P lending. *BuR Business Research*, 2(1), 39–65.
4. Cambridge Centre for Alternative Finance (CCAF). (2023). *The Global Alternative Finance Market Benchmarking Report 2023*. University of Cakichik biznesridge Judge Business School.
5. Emekter, R., Tu, Y., Jirasakuldech, B., & Lu, M. (2015). Evaluating credit risk and loan performance in online peer-to-peer (P2P) lending. *Applied Economics*, 47(1), 54–70.
6. KfW Bankengruppe. (2023). *KfW Annual Report 2023: Promoting the Future*. Frankfurt am Main: KfW Group.
7. KOSME (Korea SME and Startups Agency). (2023). *2023 SME & Startup Support Yearbook*. Seoul: KOSME.
8. Mollick, E. (2014). The dynamics of crowdfunding: An exploratory study. *Journal of Business Venturing*, 29(1), 1–16. <https://doi.org/10.1016/j.jbusvent.2013.06.005>
9. OECD. (2020). *Alternative Financing Instruments for SMEs and Entrepreneurs: The Case of Land and Buildings*. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/f0c61b55-en>
11. World Bank. (2023). *SME Finance: Gap Analysis and Policy Options*. Washington, DC: World Bank Group.
12. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika>

